

“MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING TA'LIM VA TARBIYASIDA OTA-ONA VA TARBIYACHINING HAMKORLIK FAOLIYATI”

Toshkent shahar Shayxontoxur tumani 321-sonli
ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha
ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Tulyaganova Gulchehra Rustambekovna

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish va unda ota-onalar bilan hamkorlik masalalari ahamiyati ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik mahorat, klaster, innovatsiyalar, bolalar pedagogikasi, psixologik suhbatlar, ijtimoiylashuv, yosh anatomiyasi*

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash jamiyat oldidagi eng dolzarb masala sifatida qaralib, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Ota-bobolarimiz azaldan bola tarbiyasi kamolotiga alohida e'tibor qaratganlar.

Inson shaxsini ma'naviy kamolga yetkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Buning uchun esa shaxs ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishiga jiddiy e'tibor qaratmoq lozimligini aytadilar. Shaxs - ta'lim tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi sifatida qaraladi. Shaxs - muayyan jamiyatning a'zosi. Shaxsning har tomonlama kamol topishida va uning xulq-atvorida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Uning xulqiga, munosabatlariga vaziyatlar, vositalar, ijtimoiy agentlar ham ta'sir etadi.

Shaxsning kamolga yetishida, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida, nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega albatta. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, shu jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga, shu jamiyat ijtimoiy iqlimiga asoslanib kamol topadi. Va o'z navbatida har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. O'zining qobiliyati, o'zining o'zni, xarakteri, qiziqishi, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati, atrofga munosabati, menligi bilan farqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalari, shakl, usul va metodlarini o'rganuvchi sohasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi bola psixologiyasi, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, tibbiyot, gigiyena, shuningdek, tilshunoslik, nafasat tarbiyasi, axloq fanlari bilan uzviy bog'liq. 19-asrning 2-yarmida umumiy pedagogikadan ajralib chiqqan. Bu bir tomondan yosh psixologiyasining rivojlanishi va ilmning alohida tarmog'i sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ayollarning fabrika va zavodlarga jalb etilishi natijasida bolalar muassasalarining vujudga kelishi bilan izoxlanadi.

Ingliz utopik sotsialisti R. Ouen birinchi bo'lib bolalarga ilk yoshdan ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini asoslab berdi va proletar bolalari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasini ochdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanning maxsus tarmog'i sifatida shakllandi va rivojlana boshladi. 20-asr boshlarida erkin tarbiya jarayonida bola shaxsiyatini rivojlantirish g'oyasi keng tarqaldi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining asosiy vazifasi — maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning mazmun, shakl va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasib. p.ning metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi hamda shaxsning evolyusion tarzda taraqqiy etish qonuniyatlari, O'zbekiston Respublikasining 1997-yilgi "Ta'lim to'grisida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy lasturi", o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy merosi hamda bola tarbiyasiga oid tarixiy tajribasi, ilg'or mamlakatlardagi pedagogik

qarashlar, psixologiya, falsafa, etika, estetika, tilshunoslik, tibbiyot, odam fiziologiyasiva gigiyenasi, antropologiya kabi fanlarning ilmiy asoslari, xulosalari hamda qonuniyatlari tashkil qiladi

Tarbiya qanchalik erta boshlansa, hosili ham shunchalik barvaqt ko'zga tashlanadi. Homilaning 3 oyligida deyarli barcha organlar(orqa miya,miya,sezgi organlari,yurak)rivojlangan bo'ladi. 4-5 oylik homilaning yuragi ura boshlaydi. Demak, bola tashqi muhit bilan bevosita aloqa o'rnatadi. Har qanday salbiy va ijobiy holatlar homilaga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi. Shuning uchun homilador ayol sog'lig'iga e'tiborli bo'lish, unga illiq munosabat bildirish, uning kayfiyatini ko'tarishga harakat qilish kerak. Darhaqiqat, sog'lom onadan sog'lom bola dunyoga keladi. Ham aqlan, ham jismonan sog'lom avlod esa, yurt ravnaqi uchun salmoqli xissa qo'shadigan vatanparvar, aqlan yetuk, jismonan pok bo'lib yetishadi.

Bola dunyoga kelgandan so'ng, onalar alla qo'shig'i orqali bolaga ma'naviy_axloqiy tarbiya bera boshlaydi. Alla-bu beshik qo'shig'i hisoblanib, alla kuyi orqali bola qalbida vatanga muhabbat xissi, umuminsoniy qadriyatlar shakllanib boradi. O'rta Osiyolik buyuk qomusiy olim, tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sino o'zining mashhur " Tib qonunlari" kitobida bola tarbiyasida allaning ahamiyati to'g'risida shunday yozadi. "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiya va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi"deydi. Ma'lumki bola 2-3 yoshidan boshlab o'z ehtiyojlarini, fikr va talablarini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi.

Uning atrofdagi narsalarga, hodisalarga bo'lgan qiziqishi ortadi. "Bu nima?", "Nima uchun", degan savollarni bera boshlaydi va biz tushuntirgan, aytgan narsalarimizni tezda eslab qoladi. Aynan mana shu yoshdagi har bir tassurot inson ongida doimo saqlanib qoladi deydi,-Masari Ibuka "Uchdan keyin kech" asarida. Ota-onalar 2-3 yoshdan boshlab bolani davlat yoki nodavlat Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlariga beradi.

Maktabgacha ta'lim bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi maktabga borishga zamin yaratuvchi har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Bolalar MTTda o'z tengdoshlari bilan aloqa o'rnatadilar va shu orqali jamoa bo'lib ishlashni o'rganadilar. Tarbiyachi bolalarni yosh guruhlarga bo'lgan holatda mashg'ulot olib boradi. Mashg'ulot jarayonida bolalar ham jismonan, ham aqlan o'sadi. Tarbiyachining yurish_turishi, kiyinishi, nutqi va harakteri bolaga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi. Shuning uchun bugungu kunda tarbiyachilarning pedagogik mahorati oshirilmoqda.

Bolaning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishida tarbiyachi va ota-onalar sayharakatlarining ahamiyati kattadir. Yurtboshimiz bejiz maktabgacha ta'lim kelajak poydevori deya ta'kidlamagan. Poydevor mustahkam bo'lsa, imorat albatda mustahkam, ko'rkam va salobatli bo'lib bo'y cho'zadi. Bu poydevorni, ya'ni yurtimiz ertasi poydevorini aynan ota-onalar va Maktabgacha Ta'lim Tashkiliti zimmasidadir.

Bunda ota-ona va tarbiyachilar nimalarga e'tibor berishi kerak? Avvalo "Men konsepsiyasiga" tayangan holatda bolaning menini ya'ni shaxsiy fikrini qo'llab quvvatlashi joiz. Har bir bolada biron bir jaroyonga, hodisaga yoki mashg'ulotdan so'ng reflektiv faoliyat yuzaga keladi. Ota-ona va tarbiyachilar bolaning fikrlarini u noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar inobatga olishi, to'g'ri bo'lsa rag'batlantirishi, noto'g'ri bo'lsa bolaning ruhiyatini tushurmagan holatda turli xil misollar orqali tushuntirish darkor.

Bolani qattiq bosim ostiga olib, qo'rqitgan holatda tarbiyalash ijobiy natija bermaydi. Darvoqe, Sadiy Sheroziy "Guliston" asarida shunday, "Ilon odamdan qo'rqgani uchun uning oyog'idan chaqadi, Biz bizdan qo'rqmaydiganlardan emas, bizdan qo'rqadiganlardan qo'rqishimiz kerak deydi. Ayniqsa ota-onalarning bola bilan do'stona munosabat o'rnatishi, u ulg'ayganda uning eng yaxshi maslahatchisiga aylanib, balog'at yoshida turli xil yomon yo'llarga kirishining oldi olinadi. Shuning uchun ham Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida bolalarda oilaga bo'lgan muhabbatni, uning muqaddasligini xis etirish uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida "Oila

bu-kichik vatan" mavzusida mashg'ulat olib boriladi. Bunda she'rlar, ibratli hikoya va ertaklar asosiy vosita hisoblanadi.

Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy, yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, albatta ijtimoiy agentlari bilan. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu o'z navbatida jamiyatning ma'naviy qiyofasi, munosabatlar, ta'sir etuvchi vositalar darajasiga bog'liq. Muhit deganda shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi borliq, olam voqelik, hodisalar, agentlar majmui tushuniladi. Muhit tushunchasi o'zida geografikhududiy, ijtimoiy va mikro muhit yani oila instituti xususiyatlarini ifoda etadi.

Mikromuhit o'zida ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, MTT, maktab, do'stlar, va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Bu mikromuhitda bolani ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Agar bola mo'tadil muhitda o'sib, foydali faoliyat bilan shug'ullanmasa xulqida og'ishishlar ro'y berishi mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Ta'lim-tarbiya masalalari, ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayonida alohida e'tiborga ega. Ijtimoiy voqea va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri g'oyat muhim. Ijtimoiy muhit abadiy emas, u inson umri davomida o'zgarib boradi ijtimoiy tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida yangilanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bolaga ta'lim va tarbiyani yoshligidan to'g'ri yo'lga qo'ysak, u hech qachon egri yo'ldan yurmaydi. U ham ulg'ayib, ota-ona yoki pedagog bo'lib yetishadi va keyingi avlodni ham o'sha to'g'ri yo'ldan boshlaydi. Mevali daraxt ildiz olgani kabi ezgulik, ilm ham mana shu yo'sinda quloq yozadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 b
2. I.V.Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2018 y - 72 b

3. Sh.A.Sodiqova *“Maktabgacha pedagogika”*. *“Tafakkur sarchashmalari”* T.: 2013 y.- 293 b
4. N.M.Qayumova *“Maktabgacha pedagogika”*. *“TDFU” nashriyoti* T.: 2013 y. - 183
5. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. *“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (Takomillashtirilgan)* T: 2022 y.- 102 b